

## BUXORODA MAVJUD BO'LGAN QURILISH USLUBLARI TARIXIDAN

*Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi  
Hayotov Feruz*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Buxoro shahrida islom dini kirib kelish davridan keyingi asrlarda mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davr mobaynida Buxoroga xos bo'lgan qurilish uslublari va inshootlari haqida so'z boradi. Mahalliy va o'zlashgan uslublar, va ularning o'zaro ta'siri, shuningdek ularga xos bo'lgan xususiyatlar hamda misol tariqasida ayrim memoriy obyektlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Annotation:** *this article will talk about the building styles and structures characteristic of Bukhara during the period from the introduction of Islam in Bukhara in the centuries after the Mongol invasion. Local and acquired styles, and their interaction, as well as features inherent in them, as well as information about certain Memorian objects as an example are presented.*

**Kalit so'zlar:** *Islomiy qurilish uslubi, Somoniylar, Somoniylar maqbarasi, so'g'diy uslub, moniylik, Qoraxoniylar, Arslonxon, Minorai Kalon, muqarnas, ganchxok, Mag'oqi Attori, Namozgoh, Sayfiddin Boharziy maqbarasi, koshin.*

**Keywords:** *Islamic building style, Somani, Somani mausoleum, Sogdian style, monism, Karakhani, Arslonkhan, Minorai Kalon, muqarnas, ganchhok, Magoqi Attori, prayer hall, Sayfiddin Boharzi mausoleum, koshin.*

Tarixdan bizga ma'lumki, Buxoro shahri o'zining buyuk o'tmishiga ega shaharlardan biridir. Bu shahar bilan bog'liq sodir bo'lgan ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqealar, Buyuk Ipak yo'li va boshqa mamlakatlar bilan faol savdosi kabi mavzular haqida ko'plab ma'lumotlar aytib o'tilgan. Ammo, ular orasida hozirda ham ko'pchilikni hayratda qoldirayotgan va sayyoohlar oqimining eng muhim omillaridan biri sifatida Buxoro shahrining madaniy me'rosi hisoblanmish qadimiy obidalari haqida so'z yuritmay iloq yo'q. Albatta, shahar o'zining bebaho tarixiy inshootlariga ega. Ularning har biri esa o'ziga xos uslublarga egadir.

Buxoro garchi o'zining islom dini kirib kelganidan keying davrdagi arxitekturasi bilan mashhur bo'lsada garchi arab binokorlik asoslari shaharning paydo bo'lgan davridan beri mavjud bo'lgan. Garchi Buxoro shahriga bu davrda yangi islomiy uslub kirib kelgan bo'lsa hamki, mahalliy aholi qurilish san'atida o'zining islomgacha bo'lgan uslublarini dastlabki o'rta asrlarda qo'llab kelgan.

Shunday bo'lsada, bu davrda shaharga kirib kelgan yangi qurilish sohasidagi o'zgarishlar me'morchilik asoslariiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadidi. Ayniqsa, IX-XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyo me'morchilik san'ati yangi bosqichga ko'tarilgan. Markaziy Osioning ko'pgina me'morchilik yodgorliklari islom dini xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qurila boshlanib, bu davrning me'morchilikda eng katta yutuqlaridan biri bu bino qurilishida xom g'isht o'rnida pishiq g'ishtning ishlatalishi

bo'ldi. Endilikda binolar avvalgi islomgacha bo'lgan xom g'ishtdan bino qilingan uylardan ancha mustahkamroq bo'ldi. Shuningdek, pishiq g'ishtning keng ko'lama ishlatalishi, ular bilan murakkab kompozitsiyalar yaratish, binoning tashqi va ichki ulug'vorligini ta'minlash imkoniyatini bergen. Ravoqli va gumbazli binolar ko'p yo'lga qo'yilgan<sup>18</sup>. Bunday binolardan biriga misol tariqasida, qorishma uslubida bino qilingan, ya'ni ham islomiy, ham islomgacha mug' (otashparastlar) uslubida bunyod qilingan Somoniylar maqbarasi hisoblanadi. Ushbu obidaning qurilish tarixi buyuk sarkarda Ismoil Somoniyning nomi bilan bog'liqdir. Ismoil Somoniy o'zining hukmronligi chog'ida o'z otasi Ahmad Somoniy sharafiga bunyod ettiradi. Keyinchalik esa, shu maqbaraning o'zida sarkardaning o'zi ham dafn etilgan. Maqbara 892-907 yillar mobaynida bunyod etilgan. 1927-yildagi arxeologik izlanishlar natijasida maqbara ostidan ikki yog'och tobut topilgan<sup>19</sup>.

Somoniylar maqbarasi Markaziy Osiyoda eng ko'hna musulmon me'moriy inshooti butunlay pishiq g'ishtdan ko'tarilgan. Yodgolik islam dinigacha bo'lgan mahalliy so'gdiy me'morlar tajribasiga asoslangan. Qadim vaqtarda me'morlar qurilishda yog'och vax om g'ishtdan foydalanganlar. Ma'lumki, ular ancha chidamsiz qurilish materiallari edi. Maqbara gumbazining sakkiz qirrali gardish bilan tokchalar ustida turishi, borgan sari torayib boradigan ravoqli kiraverish joylari pastakkina darchalar, binoga tutashib ketgan burchak ustunlari, ichkaridagi ustunchalar, g'ishtlarni turlicha terish yo'li bilan qilingan frizz va arxivoltlarning shakli, sopol bezaklar bularning hammasi qadimiy so'g'diyalar me'morchiligi san'atida ham uchraydi. Binobarin, Buxoroning Somoniylar davridagi hashamatli ma'morchiligi so'g'diyalar me'morchiligi an'analari bilan uzviy bog'liqdir<sup>20</sup>. Bu esa hali hamon islam davrida ham so'g'diy qurilish uslublarining Buxoro shahri me'morchiligidagi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Demak, yuqoridagi fikrdan xulosa chiqaradigan bo'lsak, so'g'diy uslub binolarga hashamdarlik baxsh etgan, va g'ishtlarning turli holatlarda terilganligi bilan binoning tashqi va ichki qiyofasiga nasif bezaklar bergen. Shuningdek, maqbaraga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning tashqaridagi to'rt arkasida ham aylana, uchburchak va doira shakllarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida Buxoro shahrida bu davrlarda ham uch dinning o'zaro qorishuvi natijasida vujudga kelgan din (otashparastlik, buddaviylik va xristianlik) – moniylik dining mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu, maqbaradagi bezaklar moniylikning uch asosi hisoblanmish dinlarni ifodalagan.

Maqbaraning umumiyligi korinishi kvadrat planiga mos tushgan. Maqbara juda oddiy bo'lib, ikkita turg'un shakldan qaror topgan, ya'ni yarimshar shaklidagi qubba bilan tugallangan kub nusxa binodan iborat. Binoning to'rtala tomoni ham arxitektura jihatidan bir xilda bezatilgan maqbaraning sentrik kompozitsiya uslubida yaratilganligini ko'rsatadi. Maqbaraning ichkarisida ham arxitektura arxitektura elementlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Devorlarning yuqori burchaklarida tokchalar

<sup>18</sup> Usmon Qoraboyev, G'ayrat Soatov. O'zbekiston madaniyati. T.: "Tafakkur-bo'stoni". 2011. -B. 82.

<sup>19</sup> Ашурев. Я.С., Гелах. Т.Ф., Камалов. У.Х. Бухара. Краткий справочник. –Т.: "Узбекистан", 1963. -С. 30.

<sup>20</sup> To'rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. "Durdona", 2020. -B. 102.

bo'lib, tokcha va darchalarning usti sakkiz qirrali gardish qilib ishlangan. Maqbara gumbazi ana shu gardishda qo'ndirilgan<sup>21</sup>.

Bundan tashqari, nafaqat Somoniylar davrida, balki, keyinchalik O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan sulolalardan biri Qoraxoniylar hukmronligi davrida ko'plab inshootlar buniyod etilgan. Qoraxoniylarga xos xarakterga ega bo'lgan jihat shunda bo'lganki, mug' ya'ni so'g'diycha uslub butunlay muomaladan chiqqan bo'lib, ko'pchilik binolar garchi arab uslubidagi binolarga o'xshamasada, arxitekturada o'ziga xos bo'lgan yangicha ko'rinishlar paydo bo'ldi. Lekin ular o'z navbatida islomiy qurilish uslubiga xos edi. Qoraxoniylar davrida qad rostlagan binolar shunchaki oddiy binolar bo'lmay, ular ancha takomillashgan va nafislikka ega inshootlar bo'lgan. Masalan, ular orasida hali ham Buxoro deyilganda ko'z oldimizga keladigan Minorai Kalondir.

Minorai Kalon 1127-yil Asrlonxon buyrug'iga asosan, me'mor usto Baqo tomonidan qurilgan. Minoraning poydevori toshlar va qir qorishmalari bilan mustahkamlangan. Aytishlaricha, minora qurulishida poydevor va teriladigan g'ishtlar orasidagi loyga tuya suti qo'shilgan. Minoraning balandligi 46 metr atrofida bo'lib, tanasi aylana g'o'lasimon shaklda, yuqori tomonga ingichkalashib boradi. Yuqori qavati esa aylana shaklga ega bo'lgan xonadan iborat bo'lib, minoraning eng yuqori qismi esa muqarnas shakldagi o'yma nashqlardan iborat. Minoraga 105 zina orqali chiqladi<sup>22</sup>. Minoraning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'isht (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g'ishti o'rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasaviy shakldagi bejirim bezaakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy sirkor halqalarning har biri turli handasaviy shaklda bezatilgan<sup>23</sup>. Minorai Kalon uslubida qo'llanilgan elementlar Vobkent minorasining qurilishida ham asosiy ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, buniyodkor hukmdorlardan biri Qoraxoni Arslonxon davrida qurilgan yana ikki mashhur binolardan Mug'lar ibodatxonasi ustida buniyod etilgan Mag'oki Attori va Shamsiobod bog'i o'rnida buniyod etilgan Namozgoh (XI asr) jome' masjidi buniyod etilgan. Ushbu binolarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asta-sekinlik bilan qurilish obyektlariga koshinlarning keng ko'lamda ishlatila boshlanganligining guvohi bo'lamic. Endilikda inshootlar shunchaki kichik enga ega bo'lgan shakldan ancha salobatli va uzunchoq shaklda aholinig soniga qarab quriluvchi yirik binolarning qurilishiga olib kelgan.

XII asrdagi Buxoroning muqaddas qadamjolaridan hisoblangan Chashmai Ayub maqbarasi Somoniylar maqbarasidan farqli ravishda xonalarga bo'lingan holda, ancha oddiyoq ko'rinishga ega. Smoniylar maqbarasidan uncha uzoq bo'limgan joyda joylashgan ushbu mozor ustida kichik sodda va qubbasimon kichik gumbazlar bilan mustahkamlangan. Maqbaraning eng yirik gumbazi esa keying

<sup>21</sup> To'rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. "Durdona", 2020. -B. 102-103.

<sup>22</sup>Сааков В.Г, Музаффаров А.А, Рейхер Р.Н. Бухара. Путеводитель. -Т.: 1987. -C. 16-17.

<sup>23</sup> To'rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. "Durdona", 2020. -B. 104.

yillarda Amir Temur tomonidan olib kelingan Xorazm asirlari tomonidan bunyod etilgan. Shuningdek, Xonalarga bo'lingan alohida alohida xonalar yagona joyga birlashtirilgan.

Somoniylar maqbarasi kabi gumbazga ega bo'lgan binolarning soni oshib, shu uslubdagi gumbazlar Buxoroning an'anaviy va o'zga hududlarda takrorlanmas uslubiga aylangan. Xuddi shunday gumbazlardan biri tasavvuf tariqati namoyandasি hisoblangan Sayfiddin Boharziyga (1262-yilda vafot etgan) atab qurdirilgan maqbara hisoblanadi. Maqbara mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrlarda qurilgan.

Ilk O'rta asrlardagi qurilgan ushbu binolar o'zida sodda va o'g'ir, mustahkam qurilish uslubiga ega binolardir. Aynan shu kabi qurilish arxitekturasiga ega binolar Temuriylar, Shayboniyilar, Ashtarxoniyilar davridagi chet o'lkalardan o'zlashgan me'moriy obidalardan farqli ravishda Buxoroning mahalliy uslubi asosiy rol o'yungan inshootlardan hisoblanishadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Usmon Qoraboyev, G'ayrat Soatov. O'zbekiston madaniyati. T.: "Tafakkur-bo'stoni". 2011.
2. To'rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. "Durdona", 2020.
3. Saakov В.Г, Музafferov А.А, Рейхер Р.Н. Бухара. Путеводитель. -Т.: 1987.
4. Ашурев. Я.С., Гелах. Т.Ф., Камалов. У. Х. Бухара. Краткий справочник. –Т.: "Узбекистан", 1963.
5. Бахромов Қ. Бухоро мадрасалари. "Мехнат". –Т.: 2013.